



ROSSIYA FEDERATSIYASIDA YOSHLAR BILAN OMMAVIY MULOQOTNI TASHKIL ETISH: «ЗНАНИЕ.ПЕРВЫЕ» MARAFOINI TAJRIBASI

Maxammadaliyev Diyorbek Farxodjon o'g'li

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti

Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i

ORCID: 0009-0002-9016-2398

diyorm0720@gmail.com

Tel.: +99877902401

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22159554>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-avgust 2026 yil

Ma'qullandi: 27-avgust 2026 yil

Nashr qilindi: 29-avgust 2026 yil

KEY WORDS

«Знание.Первые», yoshlar,
marafon, ommaviy muloqot,
auditoriya, interaktiv format,
raqamli kontent, yoshlar siyosati.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Rossiya Federatsiyasida yoshlar bilan ishlashda qo'llanayotgan «Знание.Первые» marafoni tajribasi o'rganiladi. Marafon turli soha vakillari bilan ochiq muloqot, ma'ruza, savol-javob, master-klass va boshqa ishtirok shakllarini bir dastur doirasida birlashtiradi. Tadbirning markaziy va hududiy maydonlarda o'tkazilishi, shuningdek, chiqishlarning internet orqali jonli uzatilishi auditoriya qamrovini kengaytirish imkonini beradi. Maqolada marafonning tashkil etilish tartibi, auditoriya bilan ishlash shakllari va raqamli kontentdan foydalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tadbir natijalarini baholashda faqat ishtirokchilar soni yoki internetdagi ko'rishlar miqdori bilan cheklanib qolmasdan, auditoriyaning amaldagi ishtiroki va kontentdan foydalanish darajasini ham hisobga olish zarurligi ko'rib chiqiladi.

«Знание.Первые» marafoni Rossiyada yoshlar bilan ishlashning yirik formatlaridan biri bo'lib, uning asosiy xususiyati turli shakldagi faoliyatlarni bitta dasturga birlashtirishidir. 2026-yilgi marafon Nizomida oflayn va onlayn ishtirok, spiker chiqishlari, maxsus formatlar hamda videokontent marafonning asosiy elementlari sifatida belgilangan. Shu sababli «Знание.Первые»ni faqat ketma-ket ma'ruzalar tashkil etiladigan tadbir sifatida baholash to'g'ri bo'lmaydi. Unda ekspert bilan bevosita muloqot, savol-javob, master-klass, hududiy maydonlar va jonli internet translyatsiyasi bir vaqtning o'zida ishlaydi.

Mazkur format 2021-yildan buyon muntazam rivojlantirib kelinmoqda. «Российское общество «Знание»ning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2026-yillarda 10 ta marafon o'tkazilgan, ular doirasida yoshlarning taniqli shaxslar bilan 1 600 dan ortiq uchrashuvi tashkil etilgan. Ushbu uchrashuv va chiqishlarning internetdagi translyatsiyalari jami 1,3 milliarddan ortiq ko'rish qayd etgan. 2026-yil 28–30-aprel kunlari o'tkazilgan marafonda esa 18 mingdan ortiq ishtirokchi va 100 nafardan ortiq spiker qatnashgan. Asosiy maydon Moskvadagi «Манеж» bo'lgan bo'lsa-da, tadbir Rossiyaning boshqa hududlaridagi maydonlar orqali ham tashkil etilgan.

Biroq bunday ko'rsatkichlar marafonning amaliy natijasini to'liq tushuntirib bermaydi. Katta auditoriyani qamrab olish bilan ushbu auditoriyaning tadbir mazmuniga real jalb etilishi bir xil ko'rsatkich emas. Masalan, L.N. Duxanina va A.A. Maksimenkoning auditoriyaning turli loyihalarga jalb etilishini o'rgangan tadqiqotida respondentlarning o'rtacha 20 foizi materiallarni oxirigacha ko'rishi aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotda alohida loyihalarning tanilish darajasi ham sezilarli farq qilishi ko'rsatilgan. Demak, internetdagi ko'rishlar soni yoki ishtirokchilar miqdorini tadbir samaradorligining yagona mezoni sifatida qabul qilish yetarli emas.

Shu nuqtayi nazardan, «Знание.Первые» tajribasini o'rganishda marafon qancha auditoriyani qamrab olganidan ko'ra, bu qamrov qanday tashkiliy mexanizmlar orqali shakllantirilgani muhimroqdir. Markaziy va hududiy maydonlarning yagona dastur asosida ishlashi, oflayn va onlayn ishtirokning birlashtirilishi, turli soha vakillarining spiker sifatida jalb qilinishi hamda tadbir davomida yaratilgan kontentdan keyinchalik ham foydalanish imkoniyati formatning asosiy jihatlarini tashkil etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi «Знание.Первые» marafoni misolida yoshlar bilan ommaviy muloqotni tashkil etishning tashkiliy mexanizmlarini tahlil qilish, formatning asosiy afzalliklarini aniqlash hamda uning amaliy natijalarini baholashda qo'llanishi mumkin bo'lgan yondashuvlarni ko'rib chiqishdan iborat. Buning uchun marafonning institutsional asoslari, tashkiliy modeli, auditoriya bilan ishlash shakllari va raqamli kontentdan foydalanish amaliyoti o'rganiladi.

«Знание.Первые» marafoni alohida tashabbus sifatida emas, Rossiyada yoshlar bilan ishlash va bilim tarqatishga qaratilgan davlat siyosati doirasida shakllangan. Buning huquqiy asosi, avvalo, Rossiya Federatsiyasining "Ta'lim to'g'risida"gi Federal qonuni bilan bog'liq. 2021-yilda mazkur qonunga kiritilgan o'zgartirish orqali ta'lim dasturlaridan tashqarida bilim va tajribani tarqatishga qaratilgan faoliyat alohida tushuncha sifatida belgilandi [1; 2]. Keyinchalik Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2022-yil 1-iyuldagi 1195-son qarori bilan bunday faoliyatni tashkil etishning asosiy qoidalari tasdiqlandi [3].

Bu huquqiy asos «Российское общество «Знание» faoliyatining yo'nalishini ham belgilab beradi. Tashkilot tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar yoshlar siyosati, tarbiya, ilm-fan, madaniyat va ommaviy kommunikatsiyalar bilan bog'liq holda olib boriladi. 2030-yilgacha Rossiyada yoshlar siyosatini amalga oshirish strategiyasida ham yoshlarning rivojlanishi, ularning jamiyat hayotidagi ishtiroki va turli imkoniyatlardan foydalanishi ustuvor yo'nalishlar qatoriga kiritilgan [4]. Shu bilan birga, 2022-yildagi 809-son Prezident farmonida ta'lim, tarbiya, yoshlar bilan ishlash, madaniyat va ommaviy kommunikatsiyalar davlat siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida ko'rsatilgan [5].

«Знание.Первые» marafonining amaliy faoliyati esa alohida Nizom asosida tartibga solinadi. 2026-yilgi Nizomda marafon «Российское общество «Знание»ning asosiy loyihalaridan biri sifatida belgilangan. Unda marafonning maqsadi, ishtirokchilari, spikerlar faoliyati, oflayn va onlayn ishtirok shakllari, maxsus formatlar hamda videokontentdan foydalanish tartibi ko'rsatilgan [6]. Shu sababli marafon faqat ma'ruzalar ketma-ketligidan iborat tadbir emas, balki bir nechta ishtirok shakllarini birlashtirgan tizim sifatida tashkil etiladi.

2026-yilgi marafon 28–30-aprel kunlari o'tkazilgan. Asosiy maydon Moskvadagi «Манеж» Markaziy ko'rgazmalar zali bo'lgan. Shu bilan birga, Moskva, Astraxan, Nijniy

Novgorod, Tver, Naryan-Mar, Noviy Urengoy, Barnaul, Yakutsk, Maxachqala va Donetskda ham hududiy maydonlar tashkil etilgan. Natijada tadbir bitta markaziy maydon bilan cheklanmay, turli hududlarni yagona dastur asosida bog'lagan.

Marafonning tashkiliy tomondan muhim jihati shundaki, oflayn tadbirlar internet orqali jonli uzatiladi. Bu esa tadbir o'tkazilayotgan joyga bora olmagan auditoriyaga ham dasturdan foydalanish imkonini beradi. Spiker chiqishlari, ochiq muloqotlar va boshqa materiallarning keyinchalik raqamli platformalarda saqlanishi esa ulardan marafon tugaganidan keyin ham foydalanish imkonini yaratadi. Shu tariqa, tadbirning auditoriyasi faqat zalda qatnashganlar bilan chegaralanmaydi.

Bu jihatlar «Знание.Первые» marafonining tashkiliy modeli ikki yo'nalishda ishlashini ko'rsatadi: bir tomondan, ishtirokchilar bilan bevosita muloqot tashkil etiladi, ikkinchi tomondan esa shu mazmun raqamli kanallar orqali kengroq auditoriyaga yetkaziladi. Aynan shu ikki yo'nalishning birlashtirilishi marafonning keyingi bo'limda ko'rib chiqiladigan tashkiliy modelini shakllantiradi.

«Знание.Первые» marafonining tashkiliy modeli bir nechta ishtirok shakllarini bir vaqtning o'zida qo'llashga asoslangan. 2026-yilgi Nizomda oflayn va onlayn ishtirokchilar, spikerlar, spiker chiqishlari, maxsus formatlar hamda videokontent marafonning asosiy elementlari sifatida ko'rsatilgan [7]. Amalda bu elementlar bir-biridan alohida emas, balki yagona dastur doirasida ishlaydi. Ishtirokchi tadbir maydonida spiker bilan bevosita muloqot qilishi mumkin bo'lsa, boshqa auditoriya ayni chiqishni internet orqali kuzatishi mumkin.

Spiker chiqishlari ham faqat an'anaviy ma'ruza shakli bilan cheklanmaydi. Marafon dasturida ochiq muloqot, savol-javob, master-klass, intervyu, muhokama va boshqa formatlardan foydalaniladi [7]. Bu ishtirokchiga tayyor axborotni tinglash bilan birga savol berish, fikr bildirish yoki ayrim mavzularda amaliy jarayonda qatnashish imkonini beradi. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasi bilan ishlashda bunday shakllar spiker va ishtirokchi o'rtasidagi masofani kamaytiradi.

Marafonning yana bir xususiyati markaziy va hududiy maydonlarning bir dastur asosida ishlashidir. 2026-yilda asosiy tadbir Moskvadagi «Манеж»da o'tkazilgan bo'lsa-da, boshqa hududlarda ham alohida maydonlar faoliyat ko'rsatgan [8; 9]. Bunday tashkil etish usuli barcha ishtirokchilarni bitta joyga to'plash zaruratini kamaytiradi va bir xil dasturdan turli hududlardagi auditoriyaning foydalanishiga imkon beradi.

Onlayn translyatsiya ushbu modelning hududiy maydonlardan tashqariga chiqishini ta'minlaydi. Spikerlarning chiqishlari va asosiy tadbirlar internet orqali jonli namoyish qilinadi [7; 8]. Shu sababli marafonda "ishtirokchi" tushunchasi faqat tadbir zalida bo'lgan shaxslar bilan chegaralanmaydi. Onlayn auditoriya ham dasturning muayyan qismidan bir vaqtning o'zida foydalanadi.

Raqamli kontent bilan ishlash esa tadbir tugaganidan keyin ham davom etadi. Ma'ruza, suhbat va boshqa chiqishlarning videoyozuvlari saqlanadi hamda raqamli platformalarda tarqatiladi [8; 9]. Natijada bir marta tashkil etilgan uchrashuv keyinchalik ham ko'rilishi mumkin bo'lgan materialga aylanadi. Bu jihat marafonni faqat uch kun davom etadigan tadbir emas, balki davomli ravishda foydalaniladigan kontent manbai sifatida ham ko'rish imkonini beradi.

Marafonning asosiy tashkiliy elementlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1-jadval. «Знание.Первые» marafonining asosiy tashkiliy elementlari

Tashkiliy element	Amalga oshirish shakli	Asosiy vazifasi
Markaziy va hududiy maydonlar	Bir nechta hududda yagona dastur asosida tadbirlarni tashkil etish	Hududiy qamrovni kengaytirish
Oflayn ishtirok	Spiker va auditoriyaning tadbir maydonidagi bevosita ishtiroki	To'g'ridan-to'g'ri muloqotni ta'minlash
Onlayn ishtirok	Jonli internet translyatsiyalari	Tadbir maydonidan tashqaridagi auditoriyani qamrab olish
Spiker chiqishlari	Ma'ruza, ochiq muloqot, savol-javob, intervyu	Asosiy mazmunni auditoriyaga yetkazish
Interaktiv formatlar	Master-klass, muhokama va boshqa faoliyatlar	Ishtirokchini jarayonga faol jalb qilish
Raqamli kontent	Video va boshqa materiallarni saqlash va tarqatish	Materiallardan tadbirdan keyin ham foydalanish

Ushbu modelda uchta auditoriya holatini ajratish mumkin. Birinchisi — tadbir maydonida spiker bilan bevosita muloqot qiladigan auditoriya. Ikkinchisi — jonli translyatsiya orqali tadbirni kuzatadigan masofaviy auditoriya. Uchinchisi esa tadbirdan keyin videoyozuvlar va boshqa materiallardan foydalanadigan auditoriyadir. Aynan shu ketma-ketlik marafonning auditoriya bilan ishlash vaqtini tadbir o'tkazilgan kunlar bilan cheklab qo'yimasligiga xizmat qiladi.

Formatning asosiy afzalliklari. Markaziy va hududiy maydonlarning yagona dastur asosida ishlashi turli hududlardagi yoshlarni bir vaqtning o'zida qamrab olish imkonini beradi. 2026-yilda asosiy tadbir Moskvada o'tkazilgan bo'lsa-da, boshqa hududlarda ham alohida maydonlar faoliyat ko'rsatgan [8; 9]. Bunday yondashuv barcha ishtirokchilarni bitta joyga yig'ish zaruratini kamaytiradi va dasturdan turli hududlardagi auditoriyaning foydalanishiga imkon yaratadi.

Dastur mazmunining turli yo'nalishlarni qamrab olishi ham muhim jihatlardan biridir. Ilm-fan, texnologiya, madaniyat, sport va kasbiy rivojlanishga oid mavzular turli qiziqish va ehtiyojga ega yoshlar uchun tanlov imkonini kengaytiradi. Bunda mavzular sonidan ko'ra, ularning maqsadli auditoriyaga mos kelishi va spikerning mavzuni qanday yetkazishi ko'proq ahamiyat kasb etadi.

Ma'ruza bilan bir qatorda savol-javob, ochiq muloqot, muhokama va master-klasslarning qo'llanilishi ishtirokchini oddiy tinglovchi bo'lib qolishdan chiqaradi. U savol berishi, fikr bildirishi yoki ayrim faoliyatlarda bevosita qatnashishi mumkin [7]. Bu, ayniqsa, yoshlar auditoriyasi bilan ishlashda muhim, chunki bevosita muloqot spiker va ishtirokchi o'rtasidagi masofani kamaytiradi.

Jonli internet translyatsiyalari tadbir maydonida qatnasha olmagan auditoriyani ham qamrab olish imkonini beradi. Onlayn ishtirok oflayn tadbirning o'rnini bosmaydi, balki uning imkoniyatini kengaytiradi [7; 8]. Videoyozuvlarning saqlanishi va keyinchalik tarqatilishi tufayli tayyorlangan materiallardan tadbir yakunlanganidan keyin ham foydalanish mumkin.

Bu jihatlar birgalikda qaralganda, asosiy ustunlik katta auditoriyani qamrab olishning o'zida emas, balki hududiy ishtirok, bevosita muloqot va raqamli tarqatishning bir dastur

doirasida uyg'unlashganida ko'rinadi. Shu bilan birga, qamrovning kattaligi o'z-o'zidan natijadorlikni anglatmaydi. Ishtirokchilarning jarayondagi faolligi va keyinchalik kontentdan foydalanish darajasi ham natijani baholashda muhimdir.

Formatning amaliy ahamiyati. Amaliy jihatdan eng muhim natijalardan biri yoshlarning turli sohalarda tajribaga ega mutaxassislar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatidir. Spikerlarning kasbiy tajribasi, faoliyat yo'li va muayyan masalalarga munosabati tayyor ma'lumot ko'rinishida emas, ochiq suhbat va savol-javob orqali yetkaziladi. Bu ishtirokchiga nafaqat yangi ma'lumot olish, balki o'zini qiziqtirgan masala bo'yicha bevosita savol berish imkonini ham beradi [7].

Bunday uchrashuvlar auditoriya qiziqishlarini aniqlash uchun ham foydali. Qaysi mavzularga ko'proq savol berilayotgani, qanday masalalar muhokamaga sabab bo'layotgani yoki qaysi mashg'ulotlarda ishtirokchilar faolroq qatnashayotgani keyingi dasturlarni shakllantirishda qo'shimcha ma'lumot beradi. Shu ma'noda tadbir faqat tayyor mazmunni auditoriyaga yetkazish vositasi bo'lib qolmay, yoshlarning qiziqishlarini kuzatish imkonini ham yaratadi.

Raqamli materiallarning saqlanishi esa o'tkazilgan uchrashuvlardan uzoqroq muddat foydalanish imkonini beradi. Jonli tadbirda qatnasha olmagan foydalanuvchi chiqishni keyinchalik ko'rishi, qatnashgan ishtirokchi esa zarur materialga qayta murojaat qilishi mumkin [8; 9]. Natijada bir marta tashkil etilgan suhbat yoki ma'ruzaning auditoriyasi faqat o'sha kunlarda qatnashganlar bilan cheklanib qolmaydi.

Shu bilan birga, ishtirokchilar soni va internetdagi ko'rishlar tadbir natijasini baholash uchun yetarli ko'rsatkich emas. L.N. Duxanina va A.A. Maksimenko tomonidan 1 213 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotda turli loyihalarning tanilish darajasi hamda auditoriyaning kontentdan foydalanish xususiyatlari o'rganilgan [10]. Mualliflar keltirgan natijalarga ko'ra, respondentlarning o'rtacha 20 foizi materiallarni oxirigacha ko'rgan. Bu esa ko'rishlar soni bilan kontentning to'liq o'zlashtirilishi yoki unga barqaror qiziqish o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri tenglik qo'yib bo'lmasligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot bevosita «Знание.Первые» marafoni ishtirokchilari orasida o'tkazilmaganini ham hisobga olish kerak. Unda «Российское общество «Знание»ning umumiy loyihalari boshqa resurslar bilan bir qatorda ko'rib chiqilgan [10]. Shuning uchun bu natijalarni aynan marafon samaradorligining ko'rsatkichi sifatida qabul qilish to'g'ri bo'lmaydi. Biroq ular katta auditoriya qamrovi bilan auditoriyaning real jalb etilishi bir xil tushuncha emasligini ko'rsatishda foydali qiyosiy asos bo'la oladi.

Shu sababli amaliy natijalarni baholashda qatnashchilar va ko'rishlar soniga qo'shimcha ravishda savol-javoblardagi faollik, muhokamalardagi ishtirok, videomateriallarni to'liq ko'rish va ularga keyinchalik qayta murojaat qilish kabi ko'rsatkichlarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv tadbirning qancha odamga yetib borgani bilan birga, auditoriya undan qanday foydalanganini ham ko'rsatadi.

«Знание.Первые» tajribasi yoshlar bilan ommaviy muloqotni tashkil etishda bir nechta shaklni bir vaqtning o'zida qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Markaziy va hududiy maydonlarning yagona dastur asosida ishlashi, spikerlar bilan bevosita muloqot, savol-javob va master-klasslar, shuningdek, jonli internet translyatsiyalarining birlashtirilishi auditoriyani turli usullar orqali jalb qilish imkonini beradi.

Formatning muhim tomoni tadbirni faqat ma'lum vaqt va joy bilan cheklab qo'yimasligidir. Hududiy maydonlar bevosita ishtirok imkoniyatini kengaytirsa, onlayn translyatsiyalar boshqa hududlardagi auditoriyani qamrab oladi. Videomateriallarning keyinchalik ham ochiq qolishi esa tayyorlangan kontentdan tadbir yakunlanganidan so'ng foydalanish imkonini beradi.

Shu bilan birga, katta auditoriya qamrovi tadbirning samaradorligini to'liq ifodalamaydi. Ishtirokchilar soni yoki internetdagi ko'rishlar miqdori bilan birga auditoriyaning savol-javob va muhokamalardagi faolligi, materiallarni qay darajada ko'rishi hamda ularga keyinchalik qayta murojaat qilishi ham hisobga olinishi kerak. Bu tadbirning nafaqat qancha odamga yetib borgani, balki auditoriya undan qanday foydalanganini ham ko'rsatadi.

Umuman olganda, «Знание.Первые»ning tajribasi yoshlar bilan ishlashda bevosita muloqot, hududiy qamrov va raqamli imkoniyatlarni birlashtirish formatning asosiy ustunligi ekanini ko'rsatadi. Bunday yondashuv bir martalik tadbir doirasidan chiqib, yaratilgan materiallardan keyinchalik ham foydalanishga imkon beradigan tizimni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Духанина Л. Н., Максименко А. А. Оценка степени вовлеченности россиян в просветительские проекты // Психологическая наука и образование. – 2024. – Т. 29. – № 1. – С. 47–60. DOI: 10.17759/pse.2024290104.
https://psyjournals.ru/journals/pse/archive/2024_n1/Dukhanina_Maksimenko
2. Положение о федеральном просветительском марафоне «Знание.Первые»: утверждено приказом Российского общества «Знание» от 12.01.2026 № Пр-6/26. – Москва, 2026.
3. Постановление Правительства Российской Федерации от 01.07.2022 № 1195 «Об утверждении Правил осуществления просветительской деятельности». <https://publication.pravo.gov.ru/Document/View/0001202207040032>
4. Распоряжение Правительства Российской Федерации от 17.08.2024 № 2233-р «Об утверждении Стратегии реализации молодежной политики в Российской Федерации на период до 2030 года». <https://publication.pravo.gov.ru/document/0001202408290023>
5. Российское общество «Знание». Материалы федерального просветительского марафона «Знание.Первые». <https://znanierussia.ru/>
6. Указ Президента Российской Федерации от 09.11.2022 № 809 «Об утверждении Основ государственной политики по сохранению и укреплению традиционных российских духовно-нравственных ценностей». <https://publication.pravo.gov.ru/Document/View/0001202211090019>
7. Указ Президента Российской Федерации от 04.03.2026 № 136 «О внесении изменений в некоторые акты Президента Российской Федерации». <https://publication.pravo.gov.ru/document/0001202603040016>
8. Федеральный закон от 29.12.2012 № 273-ФЗ «Об образовании в Российской Федерации». <https://publication.pravo.gov.ru/>
9. Федеральный закон от 05.04.2021 № 85-ФЗ «О внесении изменений в Федеральный закон “Об образовании в Российской Федерации”». <https://publication.pravo.gov.ru/Document/View/0001202104050036>
10. Федеральный просветительский марафон «Знание.Первые» // Российское общество «Знание». <https://marathon.znanierussia.ru/>